

ALISHER NAVOIY ASARLARINI XOZIRGI ZAMON BILAN BOG'LIQLIGI**Bekmirzayeva Mazmuna Avazmatovna***Toshkent viloyati Parkent tumani. Parkent tuman politexnikumi o'qituvchisi ona tila va adabiyot*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlarining bugungi kundagi ahamiyati, hamda uning hozirgi zamon bilan bog'liqligi borasida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Alisher Navoiy, she'riyat, adabiyot, asar, ta'lim-tarbiya, ijod, mutafakkir.*

She'riyat mulkining sultoni Nizomiddin Mir Alisher G'iyosiddin Bahodir o'g'li «Navoiy taxallusi bilan o'zbek adabiyotining yangi davrda yuqori bosqich sari olib chiqqan, O'rta Osiyo Uyg'onish davrining yorqin vakili, ulug' mutafakkiri sifatida tarix zarvaralaridan joy olgan favqulodda shaxsdir. Shoir yashagan davr XV-XVI asrlar Markaziy Osiyoda Uyg'onish davrining so'ngi pallasi bo'ldi. Navoiy yashagan davrni buyuk sohibqiron Amir Temur va boshqa temuriy sultonlarning faoliyatidan ayri holda yoritib bo'lmaydi. Zero, Alisher Navoiy yashagan zamonda mamlakatda tinchlikosoyishtalik va farovonlik hukm surishida, madaniyat, ilm-fan va san'atning rivoj topishida temuriyzodalarning o'rni beqiyos.

Sharq mumtoz adabiyoti an'anaga asoslangan, g'oyaviybadiiy an'ana zaminida o'zgarib, yuksalib borgan adabiyotdir. An'anaviy g'oya, mavzu, obraz va tasvir vositalariga tayanib faoliyat ko'rsatgan bu adabiyot dunyo badiiy tafakkurida beqiyos mavqe egallagan. Ammo bunga osonlikcha, yengil-yelpi ijodiy mehnat bilan erishilmagan, albatta. Chunki an'ana degani hammasi oson, bari ilhombaxsh va ibratli degani emas. Har qanday an'ana singari adabiy an'anada ham ijobiy, eskirmas tomonlar bilan birga vaqt o'tishi bilan qiymatini boy bergan, qaytariq yoki bir xilligi bilan o'quvchini bezdiradigan u yoki bu jihatlar bo'lgan va bo'ladi ham. Har bir ulkan san'atkor eskirgandan kechish yoki uni yangilash bilan birga, yo'qni bor etish, ya'ni ixtirochilik salohiyatini ham namoyon qiladi. Shu ma'noda ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning ijod tajribasi tarixda nihoyat darajada siyrak yuzaga chiqadigan hodisadir.

Biz aytishimiz mumkinki, Alisher Navoiy adabiyotda hozirgi kun uchun katta bir yo'nalish yasab ketdi. Chunki, uning birgina asarini olib talqin qilarkanmiz, tasavvufning keng tarmoqlariga kirib boramiz. Shu sababli Alisher Navoiy ijodiga G'arb dunyosining qiziqishi hamon davom etib kelmoqda. Navoiy ijodining bir qatrasini kashf etgan xorijlik borki, o'z hayratlarini yashira olmaydi. Tezroq Navoiy haqida zamondoshlariga xabar bergisi, uni o'z ona tiliga o'girgisi kelaveradi. Navoiy g'azaliyoti bilan yuzlashgan G'arb madaniyati vakillari borki, uni - ijodi yuksak, takrorlanmas shoir ekanini e'tirof etadi. Amerikalik islomshunos olim Barri Xoberman "Saudi Aramco World" jurnalida chop etilgan "Chaucer of Turks" nomli maqolasida Navoiyni Sharq uyg'onish davri asoschilaridan biri sifatida e'tirof etadi. Germaniyaning Frayye universiteti

simpoziumida o'qilgan ma'ruzalar asosida tashkil etilgan "Mir Alisir Nawai" nomli to'plamga kiritilgan Z.Klaynmihelning "Navoiy-benavo" nomli 300 sahifali maqolasida Navoiy ijodidan olgan hayratlarini bir maqola ichiga joylash ilojisiz ish. Navoiyning "Sab'ai sayyor" asari asosida italiyalik Maykl Tramezzino tomonidan 1557-yilda yaratilgan va dunyoning bir necha tillariga qayta-qayta tarjima qilingan "Sarandipning uch shahzodasi" asarini tadqiq qilgan amerikalik sharqshunos Richard Boyl bu asarni Yevropa Uyg'onish davrining shoh asari deb ataydi.

Alisher Navoiy ilm, ma'rifat haqida ajoyib fikrlarni olg'a surdi. U aql, ilm insonning eng go'zal va zaruriy fazilatlaridan biri, har bir kishining eng muhim burchi ilm olishdir, deb hisobladi. Navoiyning fikricha, ilm-fanni egallash uchun yoshlikdan boshlab astoydil o'qish-o'rganish kerak: "Yoshligingda yig'il bilimni, qarigach sarf qilg'il ani", degan shoirning o'zi ham juda yoshligidan ta'lim oladi, o'qishga beriladi. U yoshligidanoq ko'p she'rlarni yod bilgan. Jumladan, Fariddin Attorning "Mantiq ut-tayr" ("Qush nutqi") asarini bolalik chog'laridayoq qayta-qayta o'qib, yod olgan. Alisher Navoiy keyinchalik maktab va maorif masalalariga katta ahamiyat berdi. U mehnatkash xalq bolalarini o'qitish va tarbiyalash uchun maktablar ochish va madrasalar qurish to'g'risida g'amxo'rlik qildi. Alisher Navoiy Astrobodda surgunda yurganida podsho Husayn Boyqaroga yozgan xatida o'g'il va qiz bolalar uchun maktablar ochishni talab qilgani, shaxsan o'zi madrasalar qurishda tashabbus ko'rsatgani buning yaqqol dalilidir. Navoiyning fikricha, maktab xalqqa nur keltiradi, unga to'g'ri yo'l ko'rsatadi, bolalarni bilimli qiladi. U o'zining "Ixlosiya" madrasasi yonida maktab ochib, bolalarni o'qitish va tarbiyalash uchun zarur sharoit yaratib, buning uchun lozim bo'lgan mablag' ajratadi. Navoiy dars beruvchini quyoshga o'xshatadi va bu quyosh o'z atrofidagi yulduzlarga nur sochadi, ya'ni hali ilmdan bexabar bo'lgan toliblarga ilm nurini sochadi, ma'rifat beradi, deydi.

Navoiy asarlarining g'oyaviy tarbiyada tutgan muhim o'rni uning komil insonni, bugungi kun nuqtai nazari bilan aytganda, barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyati bilan belgilanadi. Komil inson masalasi qadimgi davrdan bashariyatni qiziqtirib, u haqidagi ma'lumotlar og'zaki va yozma manbalarda, mifologiyaga bag'ishlangan asarlarda, mutafakkirlarning ijtimoiy-falsafiy merosi va badiiy adabiyotda saqlanib kelgan. Komil insonni voyaga yetkazish asrlar mobaynida kishilarning orzusi, istagi bo'lib kelgan. U to'g'risidagi tushuncha va tasavvurlar turli davrlarda turlicha talqin qilingan. Komillik to'g'risidagi fikrlarning evolyusiyasi, takomillashuvi, uning qanday bo'lishi tuzumning xarakteri, ishlab chiqarish darajasi, davlatni boshqarish uslubi, ilm-fan va madaniyatning rivojiga bog'liq bo'lgan.

Ta'kidlash kerakki, Alisher Navoiy asarlarining ustuvor tamoyillari haqida yakuniy so'z sifatida shuni aytish mumkinki, Navoiy merosining yosh avlod tarbiyasida, bugungi kunni barkamol insoni sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: birinchidan, Navoiy nazarida komil inson, ya'ni har qanday kamchilik va nuqsonlardan xoli bo'lgan barkamol shaxs hayoliy bir timsol emas, balki o'zida butun zohiriy va botiniy bilimlarni, insoniy fazilatlarini mujassam etgan real hayotda bor kishi. Ikkinchidan axloqiy poklik, nafsni tiyish, jabr-zulm, adolatsizlik, haqsizlik singari hayot qiyinchiliklariga qarshi

kurashish Farhod insonparvarligining o'zagini tashkil qiladi va komil inson sifatida shakllanishining asosi bo'lib xizmat qiladi.

Men Navoiy asarlarini chuqur o'rganish uchun kuchli falsafa va tasavvuf ilmi kerak deb o'ylayman. Asarlar mushohadasiga yetish uchun avvali inson botiniy bilimlar, majoziy va haqiqiy ishqdan xabardor bo'lishi kerak. Navoiy asarlarida komillik va komil inson obrazini yaratgan, qaysidir ma'noda tasavvufdagi tariqat yo'lini yoritib bergan desak bo'ladi. Aynan shu narsa xorijlik olimlarni nazariga tushgan va tadqiqotlarga sabab bo'lmoqda.

Professor Najmiddin Komilovning fikricha, Navoiy asarlarining markazida ibrat va komillik turadi. Sababi inson qaysi yoshda bo'lsa ham Navoiy asariga muhabbat qo'yadi.

Misol uchun, "Mahbub ul-qulub" asari odamni odob-axloqqa, ta'lim olishga undaydigan va insonni ham ruhiy, ham ma'naviy tarbiyalovchi asari ekanini bilamiz. Asarda insonni o'zini o'zi taftish qilishi, xato va kamchiliklarini bilib olishi, axloq odamning qimmatbaho libosi ekani asarda yoritilgan.

Xorijiy ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Navoiyning she'riyati va nasriy asarlari inson tafakkuriga kerakli ozuqa bera oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G'aniyeva, N. Alisher Navoiy va Sharq falsafasi. Toshkent: Fan nashriyoti, 1991.
2. Shukurov, N. Alisher Navoiy asarlarida bashoratli qarashlar. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.
3. Ochilov E. Navoiy g'azalarida komil inson timsollari // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2001. – №1. 417
4. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1979. – 216 b
5. Yusupova. Alisher Navoiy asarlarida ilm va tafakkur. O'zbek tili va adabiyoti jurnali
6. Haqqulov I. Navoiyga qaytish. T. 2007, «Fan» nashriyoti
7. Зоҳидов Л. Алишер Навоий ижодида муаммо жанри. Тошкент, 1986.